

BUXORO VILOYATINING TABIIY GEOGRAFIK KOMPLEKSLARI VA ULARDAN QISHLOQ XO‘JALIGIDA FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

BuxDPI Geografiya kafedrası o‘qituvchisi K.Sh.Nasullayeva,

BuxDPI 4-bosqich talabasi I.I.Choriqulova

Annotatsiya: Mazkur ishda Buxoro viloyatining tabiiy geografik komplekslari, ularning shakllanish xususiyatlari hamda qishloq xo‘jaligida foydalanish istiqbollari keng yoritilgan. Tadqiqotda viloyatning relyefi, iqlimi, tuproq turlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, suv resurslari hamda tabiiy hududiy komplekslarning o‘zaro bog‘liqligi ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, cho‘l, voha, daryo vodiylari va o‘rta cho‘l vohalarining qishloq xo‘jaligidagi roli, melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, sho‘r yerlarni rekultivatsiya qilish, chorvachilikni rivojlantirish hamda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar yoritilgan. Ish natijalari Buxoro viloyatining tabiiy resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligi samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Buxoro viloyati, tabiiy geografik kompleks, cho‘l, voha, daryo, vodi, tuproq, dehqonchilik, melioratsiya, sho‘rlanish, suv tejovchi texnologiyalar, rekultivatsiya, chorvachilik, ekologiya, mahsulot, qishloq xo‘jaligi, barqaror rivojlanish.

ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ КОМПЛЕКСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ И ПЕРСПЕКТИВЫ ИХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ

**Преподаватель кафедры географии Бухарского государственного
аграрного университета**

К.Ш.Насуллаева,

Студентка 4 курса Бухарского государственного аграрного университета

И.И.Чорикулова

Аннотация: В данной работе подробно рассматриваются природно-географические комплексы Бухарской области, особенности их формирования и перспективы использования в сельском хозяйстве. В исследовании на научной основе проанализированы рельеф, климат, типы почв, флора и фауна региона, водные ресурсы и взаимосвязь природных территориальных комплексов. Также рассматривается роль пустынь, оазисов, речных долин и центральных пустынных оазисов в сельском хозяйстве, перспективные направления модернизации мелиоративных систем, внедрения водосберегающих технологий, освоения засоленных земель, развития животноводства и производства экологически чистой продукции. Результаты работы послужат рациональному использованию природных ресурсов Бухарской области, повышению эффективности сельского хозяйства и обеспечению устойчивого развития.

Ключевые слова: Бухарская область, природно-географический комплекс, пустыня, оазис, река, долина, почва, земледелие, мелиорация земель, засоление, водосберегающие технологии, мелиорация, животноводство, экология, продукция, сельское хозяйство, устойчивое развитие.

NATURAL GEOGRAPHICAL COMPLEXES OF THE BUKHARA REGION AND PROSPECTS FOR THEIR USE IN AGRICULTURE

Lecturer, Department of Geography, Bukhara State Agrarian University

K.Sh. Nasullaeva,

Fourth-year student, Bukhara State Agrarian University

I.I. Chorikulova

Abstract: This work extensively covers the natural geographical complexes of the Bukhara region, their formation features and prospects for use in agriculture. The study analyzed the region's relief, climate, soil types, flora and fauna, water resources and the interrelationship of natural territorial complexes on a scientific basis. It also covers the role of deserts, oases, river valleys and central desert oases in agriculture, promising areas for the modernization of land reclamation systems, the introduction of water-saving technologies, the reclamation of saline lands, the development of livestock breeding and the production of environmentally friendly products. The results of the work will serve to rationally use the natural resources of the Bukhara region, increase agricultural efficiency and ensure sustainable development.

Keywords: Bukhara region, natural geographical complex, desert, oasis, river, valley, soil, farming, land reclamation, salinization, water-saving technologies, reclamation, livestock breeding, ecology, products, agriculture, sustainable development

Buxoro viloyati O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida, Amudaryo va Qizilqum cho'li oralig'ida joylashgan. Viloyatning katta qismi pasttekislik hududlardan iborat bo'lib, dengiz sathidan balandligi o'rtacha 150–300 metr atrofida. Hudud asosan cho'l mintaqasiga kiradi va quruq iqlim sharoiti bilan ajralib turadi. Viloyat relyefi tekisliklardan iborat bo'lib, janubi-sharqda Qizilqum

qumliklari, shimoli-g'arbda esa Amudaryo pasttekisligi joylashgan. Ayrim joylarda qadimiy daryo vodiylari, o'zansiz botiqlar va qum barxanlari uchraydi. Tuproqlarning asosiy turlari: bo'z tuproqlar, sho'rlangan tuproqlar va qumli yerlardir. Iqlimi keskin kontinental, yoz issiq va quruq, qish sovuq. O'rtacha yillik harorat: +14–15°C, iyulda +35–40°C, yanvarda –1–2°C. Yillik yog'in miqdori atigi 100–150 mm, bu esa sug'orishga asoslangan dehqonchilikni talab qiladi.

Buxoro viloyati yillik yog'in miqdori va haroratning o'zgarishi

Oy	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
O'rtacha harorat (°C)	2	5	12	18	25	31	33	32	26	18	10	4
Yog'in miqdori (mm)	15	18	23	14	8	2	0	0	2	6	10	12

Asosiy suv manbai-Amudaryo. Amu-Buxoro mashina kanali, Qorako'l va Shofirkon tumanlarida keng sug'orish tarmoqlari mavjud. Yer osti suvlarining sathi ba'zi joylarda yuza joylashgan, bu esa sho'rlanish muammosini keltirib chiqaradi. Cho'l o'simliklaridan saksovul, yantoq, qandim, sho'ra, chiy kabi o'simliklar tarqalgan. Hayvonot dunyosiga qarasak, yumronqoziq, qum sichqoni, jayron, qum iloni, qum toshbaqasi va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. So'nggi yillarda yashil zonalar barpo etish va meliorativ o'rmonzorlar yaratish ishlari olib borilmoqda.

1-jadval

Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligi yerlarining taqsimoti

1.	Yaylov va cho'l yerlari	48%
2.	Sug'oriladigan yerlar	42%

3.	Bo'sh (foydalanilmayotgan yerlar)	10%

Asosan sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan. Yetakchi ekinlar: paxta, g'alla, beda, sabzavot, poliz. Qorako'l, Vobkent, Romitan va G'ijduvon tumanlarida issiqxona xo'jaliklari tez rivojlanmoqda.

2-jadval

Asosiy ekin turlari ulushi

T/r	Ekin turi	Ulushi (%)
1.	G'alla	30%
2.	Paxta	40%
3.	Sabzavot	20%
4.	Yem-xashak	10%

Qorako'l qo'ylari yetishtirish-tarixiy an'anaviy tarmoq. Cho'l hududlarida yaylov chorvachiligi (tuya, qo'y, echki boqish) keng tarqalgan. Suv resurslarini tejovchi yaylovlarni sug'orish tizimlari joriy etilmoqda.

3-jadval

T/r	Kompleks turi	Joylashuv hududi	Asosiy xususiyatlari	Qishloq xo'jaligida roli
1.	Cho'l kompleksi (Qizilqum)	Viloyatning shimoli va g'arbi	Quruq iqlim, sho'r tuproqlar, past tog' tepaliklari	Yirik yaylovlar, chorvachilik, tuya va qo'y boqish
2.	Voha kompleksi (Buxoro vohasi)	Zarafshon daryosi bo'ylab	Sug'oriladigan yerlar, unumdor tuproqlar, suv resurslari mavjud	Paxtachilik, sabzavot va polizchilik
3.	Daryo vodiylari	Zarafshon	Oqava suv	Guruch, sabzavot,

	kompleksi	daryosi atrofida	tarmoqlari, to‘qaylar, allyuvial tuproqlar	yem-xashak ekinlari
4.	O‘rta cho‘l vohalari	G‘ijduvon, Romitan, Peshku	Qisman sug‘oriladigan maydonlar	Bug‘doy, arpa, yem-xashak o‘simliklari

Buxoro viloyati tabiiy geografik komplekslari

1. Suv tejovchi texnologiya

Xorijiy bozorlar bilan bevosita shartnomalar tuzish; Qadoqlash va eksport infratuzilmasini yaratishlarni joriy etish. Buxoro viloyatida suv resurslari cheklangan, iqlimi esa juda quruq. Shu sababli tomchilatib sug‘orish, purkagich orqali sug‘orish kabi suvni tejaydigan texnologiyalarni keng tatbiq etish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar yordamida sug‘orish samaradorligi 40-50% gacha oshadi. Yerning sho‘rlanish darajasi kamayadi. Hosildorlik va suv resurslaridan foydalanish koeffitsienti yaxshilanadi. Masalan, G‘ijduvon va Romitan tumanlarida tomchilatib sug‘orish orqali paxta hosildorligi 1,5 barobar oshgan.

2. Melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish

Viloyatda sho‘rlangan va suv chiqmaydigan yerlar ko‘p bo‘lib, bu hosildorlikni pasaytiradi. Shu sababli melioratsiya tizimlarini — ya’ni drenaj kanallari, suv chiqarish quvurlari, nasos stansiyalarini zamonaviylashtirish zarur. Modernizatsiyadan kutilayotgan natijalar. Sho‘rlanish darajasining kamayishi; Sug‘oriladigan maydonlarning kengayishi; Hosildorlikning barqaror o‘sishi; Yer resurslarining uzoq muddatli saqlanishi. Masalan, Jondor va Olot tumanlarida yangi drenaj quvurlari o‘rnatilishi natijasida 2024-yilda 5 ming gektar yer qayta foydalanishga kiritilgan.

3. Sho‘r yerlarni rekultivatsiya qilish

Sho‘r yerlarni foydali holatga keltirish-bu viloyatning eng dolzarb muammolaridan biridir. Rekultivatsiya ishlariga organik o‘g‘itlar qo‘llash, tuzlarni yuvish, maxsus o‘simliklar (masalan, beda, sho‘rga chidamli don ekinlari) ekish kiradi. Natijada: Sho‘rlanish kamayadi; Tuproqning biologik faoliyati tiklanadi; Sug‘oriladigan yerlar hajmi ortadi. Bu orqali Buxoro viloyatida har yili o‘rtacha 3-4 ming gektar sho‘r yer qishloq xo‘jaligiga qaytarilishi mumkin.

4. Chorvachilikni modernizatsiya va ko‘paytirish

Viloyatda keng cho‘l va yaylovlar mavjudligi chorvachilikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Ammo bu sohada texnika, ozuqa bazasi va naslchilikni yangilash zarur. Modernizatsiya yo‘nalishlari: Naslli qoramollar va qo‘ylarni ko‘paytirish; Sun‘iy urug‘lantirish va genetik seleksiya usullarini joriy etish; Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarni tashkil etish. Natijada go‘sht, sut va jun ishlab chiqarish hajmi ortadi, eksport imkoniyatlari kengayadi. Masalan, Qorako‘l tumanida yaratilgan “Qorako‘l naslli qo‘ylar markazi” bunga yorqin misoldir.

5. Ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish

So‘nggi yillarda jahon bozorida organik (ekologik toza) mahsulotlarga talab oshmoqda. Buxoro viloyatida iqlimning quruqligi, kimyoviy o‘g‘itlardan kam foydalanish imkoniyati bu yo‘nalishda katta afzallik beradi. Rivojlantirish yo‘nalishlari: Organik sertifikatli mahsulotlar (paxta, sabzavot, meva) yetishtirish; Xorijiy bozorlar bilan bevosita shartnomalar tuzish; Qadoqlash va eksport infratuzilmasini yaratish.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro viloyati tabiiy geografik komplekslari o‘zining iqlim, relyef, suv resurslari, tuproq va o‘simlik qoplami

bilan o'ziga xos ekotizimni tashkil etadi. Viloyatning cho'l, voha va daryo vodiylari tabiiy sharoitlari bir-biridan farq qilsa-da, ular qishloq xo'jaligi uchun muhim resurs bazasini yaratadi. Ayniqsa, sug'oriladigan dehqonchilikni rivojlantirish, melioratsiya tizimlarini modernizatsiya qilish va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish natijasida yer unumdorligini oshirish imkoniyati mavjud. Sho'rlangan yerlarda rekultivatsiya ishlari, chorvachilikni modernizatsiya qilish, hamda ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish yo'nalishlarini kuchaytirish orqali Buxoro viloyati qishloq xo'jaligi barqaror rivojlanishga erishadi. Shuningdek, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirish bu hududning kelajakdagi asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'lib qoladi. Umuman olganda, Buxoro viloyatining tabiiy geografik komplekslaridan oqilona va ilmiy asosda foydalanish, mavjud tabiiy imkoniyatlarni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirish viloyat iqtisodiyotini yanada rivojlantirish va xalq farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalar to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2020–2024.
2. "O'zbekiston milliy atlas". – Toshkent: Fan, 2019.
3. Abdullayev A., Jo'rayev A. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – Toshkent: Universitet, 2021.
4. Nurmatov T., Mamatqulov A. Qishloq xo'jaligi geografiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.
5. Karimov B. Geografik komplekslar va ularning o'zaro aloqasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
6. X.R.Tashov., K.Sh.Nasullayeva Buxoro viloyati tabiiy geografik komplekslari va ularni qishloq xo'jalik uchun baholashning o'rganilishi

“Zamonaviy geografik tadqiqotlarda integratsiya: muammolar va yechimlar”
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari Toshkent, 2024-yil
11-12-oktyabr 1-qism.